

**ENERGIYA MANBALARI
QURILMALARINI XARID
QILISH XARAJATLARINI
QOPLAB BERISH
BO'YICHA
USLUBIY QO'LLANMA**

Toshkent – 2025

Energiya manbalari qurilmalarini xarid qilish xarajatlarini qoplab berish bo'yicha uslubiy qo'llanma. T.: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2025-yil. 26 bet.

Mazkur qo'llanma O'zbekiston Respublikasida energiya manbalari qurilmalarini xarid qilish xarajatlarining bir qismini kompensatsiya qilish yoki bo'lib-bo'lib to'lagan holda sotib olish tartibini sodda va ravon tilda tushuntirishga qaratilgan.

Ushbu qo'llanma energetika sohasidagi davlat xizmatchilari, tadbirkorlar hamda keng jamoatchilik uchun mo'ljallangan.

Ushbu uslubiy qo'llanma tavsiyaviy xususiyatga ega.

MUNDARIJA

Energiya manbalari qurilmalarini xarid qilish xarajatlarini qoplash bo`yicha normativ huquqiy hujjatlar Ошибка! Закладка не определена.

Kirish 2

Asosiy Tushunchalar 2

Qurilmani sotib olish va uni o`rnatish xarajatlarini kompensatsiya qilish shartlari..... 9

Mahalliy ishlab chiqaruvchi yoki uning savdo agenti hamda ariza beruvchi va birgalikda to`lovchi hamda kafilning muvofiqlik mezonlari.....Ошибка! Закладка не определена.

Ariza beruvchilarning murojaatini ko`rib chiqish tartibi13

Mahalliy ishlab chiqaruvchi va uning savdo agenti Platformaning marketpleys tizimida ishtirok etishdan chetlatish tartibi18

Bo`lib-bo`lib amalga oshiriladigan to`lovlar monitoringini olib borish va mahalliy ishlab chiqaruvchi yoki uning savdo agenti tomonidan Jamg`armaga mablag`larni qaytarish tartibi19

Yakunlovchi qoidalar21

Energiya manbalari qurilmalarini xarid qilish xarajatlarini qoplash bo'yicha normativ huquqiy hujjatlar

O'zbekiston Respublikasining Elektr energetikasi to'g'risida"gi Qonuni	
O'zbekiston Respublikasi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 2-apreldagi 134-sonli "Yoqilg'i-energetika sohasida bozor mexanizmlarini joriy etishda ehtiyojmand aholini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori	
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 5-oktabrdagi "Aholining mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqarilgan qayta tiklanuvchi energiya manbalarining qurilmalarini xarid qilish xarajatlarining bir qismini kompensatsiya qilish yoki bo'lib-bo'lib to'lagan holda sotib olish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 568-sonli qarori	

KIRISH

So'nggi yillarda mamlakatimizda energetika samaradorligini oshirish, energiya xavfsizligini mustahkamlash hamda iqtisodiyotning turli tarmoqlarida resurslar tejovchi texnologiyalarni joriy etish borasida izchil ishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, sanoat korxonalari, jamoat binolari va turli- xil xo'jalik yuritish subyektlarida energiya manbalari qurilmalarini yangilash va ularning samaradorligini oshirish keng ko'lamli dasturlar doirasida amalga oshirilmoqda.

Ko'p hollarda energiya manbalari qurilma va uskunalarni xarid qilish va ulardan foydalanishda qiyinchiliklarga duch kelinmoqda.

Adliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan ushbu uslubiy qo'llanma ana shu muammoni hal etish va energiya manbalari qurilmalarni xarid qilish xarajatlarining bir qismini qoplab berishni o'z ichiga oladi.

ASOSIY TUSHUNCHALAR

Aholining mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqarilgan qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini xarid qilish xarajatlarining bir qismini kompensatsiya qilish yoki bo'lib-bo'lib to'lagan holda sotib olishda quyidagi **asosiy tushunchalar** qo'llaniladi:

qayta tiklanuvchi energiya manbalari — atrof muhitda tabiiy holda qayta tiklanuvchi quyosh, shamol energiyasi, yer harorati (geotermal), suv oqimlarining tabiiy harakati, biomassa energiyasi;

qayta tiklanuvchi energiya manbalarining qurilmalari — qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan energiya ishlab chiqarish, energiyani qabul qilib olish, o'zgartirish, to'plash va (yoki) uzatish, shuningdek, hisobga olish bo'yicha texnologik asbob-uskunalar majmuasi, texnologik va (yoki) butlovchi asbob-uskunalar;

Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'yicha yagona elektron platforma — qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'yicha yagona elektron platforma (keyingi o'rinlarda — Platforma);

ariza beruvchi — qurilmani O'zbekiston Respublikasi hududida o'rnatish uchun ariza taqdim etgan jismoniy shaxs;

kafil — ariza beruvchi tomonidan foizsiz bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan xarid qilinganda, yozma shaklda tuziladigan kafillik shartnomasi asosida ariza beruvchining o'z majburiyatlarini to'liq bajarishi uchun kafillik bergan shaxs mahalliy ishlab chiqaruvchi

yoki uning savdo agenti/dileri oldida ariza beruvchi bilan baravar hajmda solidar tartibda javobgar shaxs;

birgalikda to'lovchi — tomonlar o'rtasida tuziladigan shartnoma asosida va tomon sifatida ishtirok etadigan hamda ariza beruvchining foizsiz bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan xarid qilinadigan qurilma to'lovlarini to'lashda yetmagan qismi bo'yicha mahalliy ishlab chiqaruvchi yoki uning savdo agenti/dileri oldidagi majburiyatlari bo'yicha javobgar shaxs;

mijozni identifikatsiyalash — mahalliy ishlab chiqaruvchi yoki uning savdo agentlari/dilerlari tomonidan ariza beruvchi, birgalikda to'lovchi va kafil ma'lumotlarini tekshirish maqsadida ular taqdim etgan hujjatlar, ochiq manbalar va ma'lumotlar bazalarida mavjud bo'lgan qo'shimcha tasdiqlangan ma'lumotlar asosida aniqlash;

skoring tizimi — "Kredit-axborot tahliliy markazi" kredit byurosi hamda boshqa tashqi tizimlarga integratsiya qilingan holda avtomatik ma'lumot almashish orqali ariza beruvchi, birgalikda to'lovchi va kafilning daromadlari, kredit yuklamasi, kredit tarixi va boshqa shu kabi omillarga taalluqli ma'lumotlarni onlayn olish imkonini beruvchi tizim;

kompensatsiya — qurilmani sotib olish va o'rnatish xarajatlarining bir qismini mahalliy ishlab chiqaruvchi yoki uning savdo agenti/dileriga Respublika budjetidan ajratilgan mablag'lar hisobidan Jamg'arma orqali to'lab berish;

foizsiz bo'lib-bo'lib to'lash — qurilma qiymatini 36 oygacha muddat davomida foizsiz teng miqdorda to'lash sharti bilan to'lovlarni amalga oshirish;

QR-kodli chek — sotilgan tovarlar (bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar) uchun hisob-kitoblarni amalga oshirishdagi fiskal belgili chek;

mahalliy ishlab chiqaruvchilar — O'zbekiston Respublikasida qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan va Elektron kooperatsiya portalida ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxs;

savdo agenti/diler — mahalliy ishlab chiqaruvchining mahsulotlarini chakana yo'l bilan yoki kichik partiyalarda sotish, o'rnatish va servis xizmati ko'rsatish faoliyati bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyekti;

qurilmani yetkazib beruvchi — marketpleys tizimida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tib, ariza beruvchi tomonidan tanlangan qurilmalarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib berish va o'rnatish faoliyati bilan shug'ullanuvchi mahalliy ishlab chiqaruvchi yoki uning savdo agentlari/dilerlari;

marketpleys tizimi — Platformada qurilmalarni bozor tamoyillari asosida erkin sotib olish yoki sotish xizmatlarini taklif qilish hamda ariza beruvchi tomonidan qurilmalar yetkazib beruvchilarini mustaqil tanlash imkoniyatini beradigan elektron savdo maydoni;

QURILMANI SOTIB OLISH VA UNI O'RNATISH XARAJATLARINI KOMPENSATSIYA QILISH SHARTLARI



Ariza beruvchi uning yoki o'zi yashayotgan uy-joyda ro'yxatda turgan oila a'zolarining nomida bo'lgan O'zbekiston Respublikasi hududidagi uy-joylari yoki boshqa bino-inshootlari uchun qurilmalarni o'rnatish bo'yicha murojaat etishi mumkin. Ariza beruvchi tomonidan qurilma xarajatlari uchun to'lovlar kompensatsiya qilinadigan qismi chegirib tashlangan holda amalga oshiriladi.

O'rnatilgan qurilmalar xarajatining bir qismi bo'yicha kompensatsiyalar mahalliy ishlab chiqaruvchi yoki uning savdo agentiga quyidagi shartlar asosida qoplab beriladi:

- ✦ qurilma muvofiqlik sertifikatiga ega bo'lishi;
- ✦ qurilmadan O'zbekiston Respublikasi hududida foydalanilishi;
- ✦ qurilmani o'rnatish Platforma orqali rasmiylashtirilishi;
- ✦ sotib olingan va o'rnatilgan quyosh va shamol elektr stansiyasi qurilmalari uchun bazaviy hisoblash miqdoridan (BHM) kelib chiqib quyidagi miqdorda kompensatsiya belgilanadi:

0,5 kVtdan 1 kVtgacha	7 barobar
1 kVt va undan 1,5 kVtgacha	10 barobar
1,5 kVt va undan 2 kVtgacha	15 barobar
2 kVt va undan yuqori	20 barobar
5 kVt va undan yuqori	50 barobar

 sotib olingan va o'rnatilgan quyosh suv isitish qurilmalari uchun bazaviy hisoblash miqdoridan (BHM) kelib chiqib quyidagi miqdorda kompensatsiya belgilanadi:

suv isitish hajmi 100 litr	5 barobar
suv isitish hajmi 200 litr	7 barobar

 Foizsiz bo'lib-bo'lib to'lash 20 kVtgacha bo'lgan quyosh va shamol elektr stansiyasi qurilmalari hamda 200 litr va undan past bo'lgan hajmdagi quyosh suv isitish qurilmalari uchun amalga oshiriladi.



Mahalliy ishlab chiqaruvchilar yoki ularning savdo agentlari arizasiga asosan Jamg'arma tomonidan Elektron kooperatsiya portalida ro'yxatdan o'tganligiga qarab Platformaga kiritiladi.

Mahalliy ishlab chiqaruvchilar yoki ularning savdo agentlari/dilerlari bilan Jamg'arma o'rtasida jismoniy shaxslar tomonidan to'liq qiymatda xarid qilingan qurilma xarajatlarining bir qismini kompensatsiya qilish yoki foizsiz bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyati bilan xarid qilingan qurilma xarajatlarining bir qismini qoplab berish uchun mablag'lar ajratish bo'yicha shartnomalar imzolanadi.



MAHALLIY ISHLAB CHIQARUVCHI YOKI UNING SAVDO AGENTI HAMDA ARIZA BERUVCHI VA BIRGALIKDA TO'LOVCHI HAMDA KAFILNING MUVOFIQLIK MEZONLARI

Mahalliy ishlab chiqaruvchilar va ularning savdo agentlari quyidagi mezonlarga muvofiq bo'lishi lozim



- ✓ oxirgi moliyaviy yil yakuniga ko'ra faoliyatini zarar bilan yakunlanmaganligi;
- ✓ kredit tashkilotlaridan avval olingan kreditlar bo'yicha muddati o'tgan qarzdorligi mavjud emasligi;
- ✓ Davlat budjeti oldida (soliqlar, bojlar, yig'imlar va boshqalar) qarzdorligi mavjud bo'lmasligi

Qurilma xarajatlarini foizsiz bo'lib-bo'lib to'lash bo'yicha ariza beruvchilar, shuningdek, kafil va birgalikda to'lovchi quyidagi muvofiqlik mezonlariga mos bo'lishi lozim:



sotib olinadigan qurilma qiymatini bo'lib-bo'lib to'lash uchun murojaat qilgan kunida **18 yoshga to'lgan va 60 yoshdan (ayollar 55 yosh) oshmagan** O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lishi;



doimiy ish joyiga, shaxsiy yordamchi yoki dehqon xo'jaligidan yoxud yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatidan doimiy daromadga, shuningdek, sotib olingan qurilma qiymatini bo'lib-bo'lib to'lash bo'yicha to'lov jadvaliga muvofiq har oyda to'lash uchun yetarli bo'lgan va qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa daromad manbaiga ega bo'lishi;



qarz yuki ko'rsatkichi **50 foizdan** yuqori bo'lmasligi. Qarz yuki ko'rsatkichi hisob-kitoblarida ariza beruvchi va birgalikda to'lovchining o'rtacha oylik daromadlari miqdori ular tomonidan oxirgi **12 oy** mobaynidagi *(12 oydan kam ishlangan taqdirda — ishlangan davr uchun)* olgan daromadlari miqdorining o'rtacha arifmetik qiymati sifatida hisoblanadi;



sotib olingan qurilma qiymatini bo'lib-bo'lib to'lashni ko'rib chiqish vaqtida kredit tashkilotlaridan avval olingan kreditlar bo'yicha **30 kun** muddati o'tgan qarzdorligi mavjud bo'lmasligi.

ARIZA BERUVCHILARNING MUROJAATINI KO'RIB CHIQISH TARTIBI

Ariza beruvchi Platforma va Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali yoki Davlat xizmatlari markazi operatori ko'magida Platformada joylashtirilgan qurilmalar bilan tanishib, o'ziga ma'qul bo'lgan qurilmani tanlaydi va murojaat arizasini qoldiradi. Ariza beruvchi Platforma orqali mahalliy ishlab chiqaruvchi yoki uning savdo agenti ko'magida arizani qoldirishi mumkin.

Ariza beruvchi, birgalikda to'lovchi va kafil Platforma orqali belgilangan mezonlar asosida skoring baholash ma'lumotlariga ko'ra **bir kun** muddatda avtomatlashtirilgan holda arizasi Jamg'arma tomonidan ko'rib chiqiladi. Bunda fuqarolarni skoring baholash belgilangan muvofiqlik mezonlari asosida amalga oshiriladi.



Ariza beruvchining arizasi quyidagi hollarda Platforma tomonidan skoring baholash ma'lumotlari asosida avtomatik ravishda rad etiladi:



ariza beruvchining Platformada ko'rib chiqish jarayonida arizasi mavjud bo'lganda;



18 yoshga to'lmagan yoki 60 yoshdan (ayollar 55 yosh) oshgan fuqaro nomidan ariza berilganda;

-  ariza beruvchining bank kreditlari bo'yicha 30 kun muddati o'tgan qarzdorligi mavjud bo'lganda;
-  salbiy kredit tarixiga ega bo'lganda;
-  ariza beruvchining soliq organlari, majburiy ijro byurosi organlari va boshqa to'lovlardan qarzdorligi mavjud bo'lganda.

Ariza beruvchi (qurilma xarajatlarini foizsiz bo'lib-bo'lib to'lash bo'yicha) tomonidan tijorat bankida doimiy pul mablag'lari kirim bo'ladigan to'lov kartasi rekvizitlari Platformaga kiritadi. Shuningdek, ariza beruvchining majburiyatlari bo'yicha birgalikda to'lovchi yoki kafil zarur bo'lganda, ularga tegishli bo'lgan to'lov kartasi rekvizitlari xam Platformaga kiritiladi.

Mahalliy ishlab chiqaruvchi yoki uning savdo agentlari tomonidan quyidagi ishlar amalga oshiriladi:



ariza beruvchining arizasiga asosan joyiga chiqqan holda, sotib olinadigan qurilmani o'rnatish bo'yicha shart-sharoitlari va qancha quvvatdagi qurilmani o'rnatish imkoniyati mavjudligini o'rganib, natijasi bo'yicha video va foto hisobot ilova qilgan holda, tavsiyanoma yoki rad etish to'g'risidagi ma'lumotni **o'n ish kuni** mobaynida Platformaga joylashtiradi.



tavsiyanoma berishdan avval qurilmani o'rnatish bilan bog'liq bo'lgan vaziyatlarni inobatga olgan holda, "Hududiy elektr tarmoqlari" aksiyadorlik jamiyati, Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi va Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer

egalari kengashi hamda sohaga mas'ul tashkilotlarning xulosasini (texnik shartlari) olish vakolatiga ega bo'lib, olingan ma'lumotlarga muvofiq qurilmani o'rnatilishi to'g'risida **tavsiyanoma** rasmiylashtiradi yoki tavsiyanoma berishni rad etadi.



Mahalliy ishlab chiqaruvchi yoki uning savdo agenti Platforma orqali yuborgan so'roviga yuqorida ko'rsatilgan tashkilotlar tomonidan **besh ish kuni** mobaynida xulosasi berilishi shart.



Qurilmani o'rnatish uchun shart-sharoit mavjud bo'lmaganda hamda qonunchilikka zid bo'lgan boshqa holatlar aniqlanganda tavsiyanomalar berilmaydi.



Mahalliy ishlab chiqaruvchi yoki uning savdo agentining mas'ul xodimi tomonidan qurilmani o'rnatish bo'yicha tavsiyanoma beriladi yoki qurilma o'rnatish rad etilganda uning sabablari ko'rsatilishi zarur, shuningdek, ariza beruvchiga SMS-xabar orqali bu haqda ma'lum qilinadi.



Qurilmaning o'rnatilishi yuzasidan berilgan tavsiyanoma mas'ul xodim tomonidan Platformaga joylashtiriladi.



Mahalliy ishlab chiqaruvchi yoki uning savdo agenti/dileri va ariza beruvchi o'rtasida elektron oldi-sotdi shartnomasi Platformada rasmiylashtiriladi, SMS-xabar orqali yuborilgan kod yordamida tuziladi.





Mahalliy ishlab chiqaruvchi yoki uning savdo agenti/dileri va ariza beruvchi o'rtasida elektron oldi-sotdi shartnomasi Platformada rasmiylashtiriladi, SMS-xabar orqali yuborilgan kod yordamida tuziladi.




Elektron shartnoma imzolangan sanadan boshlab **o'n ish kunida** mahalliy ishlab chiqaruvchi yoki uning savdo agenti/dileri tomonidan qurilma ariza beruvchiga o'rnatib, ishga tushirib berilishi zarur.

Platforma orqali tuzilgan shartnoma asosida qurilma ariza beruvchi tomonidan qabul qilib olingandan so'ng, mahalliy ishlab chiqaruvchi yoki uning savdo agentining murojaati kelib tushgan sanadan e'tiboran **besh ish** kunidan oshmagan muddatda Jamg'arma tomonidan qurilma uchun to'lovlar amalga oshiriladi.



Platforma marketplace tizimining ishlash tartibi



Platformaning marketplace tizimida tovar va xizmatlarni sotish istagi bo'lgan mahalliy ishlab chiqaruvchi uchun ochiq elektron savdo maydoni hisoblanadi. Bunda mahalliy ishlab chiqaruvchi Platforma orqali marketplace tizimiga kirib, o'z qurilmalari to'g'risidagi ma'lumotlarni mustaqil ravishda

joylashtirishi hamda tizimning imkoniyatlaridan erkin foydalanishi mumkin.

Platformada:

jismoniy va yuridik shaxslarga qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarining ehtiyot qismlarini, shuningdek, zamonaviy energiya tejoychi romlar va qurilish izolyatsiya materiallari hamda ko'mir, torf va daraxt xom ashyosidan tayyorlangan briket va pelletlar xarid qilishga;

qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarining Energetika ekspertizasi va energetik servis xizmatlarini ko'rsatadigan tadbirkorlik subyektlariga marketpleys tizimiga tovar va xizmatlarni pulli shartnoma asosida kiritilishiga ruxsat etiladi.

Mahalliy ishlab chiqaruvchi yoki uning savdo agenti tomonidan ariza beruvchiga marketpleys tizimida tanlagan qurilmalar shartnoma tuzilgan kundan boshlab **o'n kundan ortiq bo'lmagan** muddatda yetkazib berilishi va o'rnatilishi lozim.

MAHALLIY ISHLAB CHIQARUVCHI VA UNING SAVDO AGENTI PLATFORMANING MARKETPLEYS TIZIMIDA ISHTIROK ETISHDAN CHETLATISH TARTIBI



Jamg'arma quyidagi hollarda mahalliy ishlab chiqaruvchi va uning savdo agentini Platformaning marketpleys tizimida ishtirok etishdan **chetlatadi** va **Nohalol ta'minotchilar** reyestriga kiritadi:

- mahalliy ishlab chiqaruvchi yoki uning savdo agenti va ariza beruvchi o'zaro kelishgan holda mablag'ni maqsadsiz ishlatganligi aniqlanganda;
- mahalliy ishlab chiqaruvchi yoki uning savdo agenti tomonidan **o'n va undan ortiq** shartnoma bo'yicha qurilmalar yetkazib berilmaganligi va o'rnatilmaganligi aniqlangan taqdirda;
- yil yakuni bilan moliyaviy hisobotlar asosida o'tkazilgan tahlillar natijasiga ko'ra iqtisodiy ko'rsatkichlarning salbiy o'zgarishlari; o'ziga nisbatan to'lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillari joriy etilgan bo'lsa;
- mahalliy ishlab chiqaruvchi yoki uning savdo agenti orqali taklif etilayotgan qurilmalar malakaviy, texnik va tijorat talablariga javob bermasa;
- mahalliy ishlab chiqaruvchi yoki uning savdo agenti tomonidan bo'lib-bo'lib to'lash va qurilmani tanlash jarayonida ariza beruvchilar tomonidan biror-bir xatti-harakatning sodir etilishiga,

qaror qabul qilinishiga yoki biror-bir xarid qilish tartib-tamoyilining qo'llanilishiga ta'sir o'tkazish maqsadida:

- ariza beruvchi mahalliy ishlab chiqaruvchi va uning savdo agenti/dileri yoki boshqa davlat organining istalgan hozirgi yoki sobiq mansabdor shaxsiga yoki xodimiga har qanday shakldagi haqni, ishga yollash to'g'risidagi taklifni yoxud istalgan boshqa qimmatbaho ashyoni yoki xizmatni bevosita yoxud bilvosita taklif qilsa, bersa yoki berishga rozilik bildirsa;
- mahalliy ishlab chiqaruvchi yoki uning savdo agenti/dileri raqobatga qarshi harakatlarni sodir etsa yoki qonunchilikni buzgan holda manfaatlar to'qnashuvini keltirib chiqarsa.



Jamg'arma tomonidan mahalliy ishlab chiqaruvchi platformaning marketpleys tizimidan chetlatilganda avtomatik ravishda Nohalol ta'minotchilar reyestriga jamoatchilik uchun joylashtiriladi. Reyestrda kirgan ta'minotchi bir yil davomida marketpleys tizimida ishtirok etishi mumkin emas, ushbu muddat tugagandan so'ng reyestrda chiqariladi.

BO'LIB-BO'LIB AMALGA OSHIRILADIGAN TO'LOVLAR MONITORINGINI OLIB BORISH VA MAHALLIY ISHLAB CHIQUYUVCHI YOKI UNING SAVDO AGENTI TOMONIDAN JAMG'ARMAGA MABLAG'LARNI QAYTARISH TARTIBI



Ariza beruvchining qurilma uchun foizsiz bo'lib-bo'lib to'lanadigan mablag'lar hisob-kitobini yuritish va Jamg'armaga qaytarilishini ta'minlash maqsadida Jamg'arma va mahalliy ishlab chiqaruvchi yoki uning savdo agenti talabi bilan tijorat banki filiali tomonidan alohida maxsus hisobraqam ochiladi.

Mahalliy ishlab chiqaruvchi **bir oy davomida** ariza beruvchiga o'rnatilgan qurilma bo'yicha ro'yxatni tuzib, mablag'larni qaytarish jadvalini tomonlar o'rtasida imzolanishi uchun Jamg'armaga **keyingi oyda** taqdim etadi.

Ariza beruvchi tomonidan **36 oy davomida** teng miqdorda bo'lib-bo'lib to'lash shartlari mahalliy ishlab chiqaruvchi yoki tijorat banki va ariza beruvchi o'rtasida imzolangan shartnomada belgilanadi. Bunda har oylik to'lovlar shartnomaga ilova qilingan to'lovlarni qaytarish jadvalida belgilangan muddatlarda undiriladi.

Ariza beruvchi tomonidan hisobot oyida mahalliy ishlab chiqaruvchining maxsus hisobraqamiga yoki tijorat bankining tegishli hisobraqamiga to'langan har oylik to'lovlar tomonlar o'rtasida imzolangan to'lovlarni qaytarish jadvallarida belgilangan

sanadan kechiktirmasdan Jamg'arma hisobraqamiga o'tkazib berilishi shart.

Har chorak yakunida ariza beruvchi tomonidan to'langan to'lovlar mahalliy ishlab chiqaruvchi yoki uning savdo agenti yoki tijorat banki tomonidan Jamg'armaga o'tkazib borilganligi to'g'risida tomonlar o'rtasida solishtirma dalolatnoma rasmiylashtiriladi. Dalolatnomaga asosan o'z vaqtida o'tkazilmagan to'lovlar bo'yicha Jamg'arma tomonidan mahalliy ishlab chiqaruvchi yoki uning savdo agenti/dilerining asosiy hisobraqamiga yoki tijorat bankining korrespondentlik hisobvarag'iga qo'yilgan to'lov talabnomasi asosida **undiriladi**.

Mahalliy ishlab chiqaruvchi bo'lib-bo'lib to'lashdan foydalanishning butun davri davomida doimiy monitoringni amalga oshiradi. Monitoring davomida mahalliy ishlab chiqaruvchi yoki uning savdo agenti/dileri mas'ul xodimi har oylik to'lovlarning to'lanishi hamda qurilmaning but saqlanishini nazorat qilib boradi.

Qurilmani belgilangan maqsadda foydalanmaganlik va but saqlanmaganligi uchun ariza beruvchiga nisbatan mahalliy ishlab chiqaruvchi tomonidan qo'llaniladigan choralar shartnomada belgilangan bo'lishi kerak.

Ariza beruvchi tomonidan to'lovlarni shartnoma va unga ilova qilingan to'lovlarni qaytarish jadvali bo'yicha majburiyatlarni muntazam ravishda ketma-ket **uch oy davomida** buzgan taqdirda oyida mahalliy ishlab chiqaruvchi undiruvni amaldagi qonunchilik doirasida ta'minlash choralarini ko'rishi shart.

YAKUNLOVCHI QOIDALAR

Davlat soliq qo'mitasi va uning hududiy boshqarmalari tomonidan Platformaning marketpleys tizimidagi savdo maydoni orqali ma'lum bir davr mobaynida katta miqdorda tovar aylanmasini amalga oshirgan mahalliy ishlab chiqaruvchi va uning savdo agentida haqiqatda tovarlarning mavjudligi doimiy tahlil qilib boriladi.

Jamg'arma Platformasi marketpleys tizimida ishtirok etadigan mahalliy ishlab chiqaruvchi va uning savdo agentiga qo'yiladigan talablarni belgilash hamda ularga o'zgartirish kiritish vakolatiga ega.

Jamg'arma tomonidan mahalliy ishlab chiqaruvchi va uning savdo agenti/dileriga ajratilgan mablag'lar maqsadli ishlatilishini o'rganish maqsadida ariza beruvchiga o'rnatilgan qurilma mahalliy ishlab chiqaruvchi va uning savdo agenti bilan birgalikda joyiga chiqqan holda monitoring qilinishi mumkin.

**Qayta tiklanuvchi energiya manbalarining qurilmalari xarajatlarining
bir qismiga kompensatsiya ajratish, shuningdek, bo'lib-bo'lib to'lash
uchun xarid qilingan qurilmalar xarajatlarini O'zbekiston Respublikasi
Energetika vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Tarmoqlararo
energiyani tejash jamg'armasi tomonidan qoplash**

SXEMASI

Bosqichlar	Subyektlar	Chora-tadbirlar	Muddatlar
I bosqich	Ariza beruvchi	1. Qurilmani o'rnatish uchun arizalar onlayn tarzda Yagona elektron platforma orqali ariza beruvchi mustaqil ravishda yoki mahalliy ishlab chiqaruvchi yoki uning savdo agenti/dilerilar ko'magi bilan va/yoki Yagona davlat xizmatlari portali va Davlat xizmatlari markazi orqali taqdim etiladi. 2. Muvofiqlik mezonlari asosida skoring baholash avtomatlashtirilgan holda bir kun muddatda amalga oshiriladi. 3. Skoring baholash ma'lumotlariga ko'ra muvofiqlik mezonlariga to'g'ri kelganligi yoki rad etilganligi to'g'risida ariza beruvchining telefoniga SMS-xabar yuboriladi. 4. Shuningdek, arizani ko'rib chiqish uchun mahalliy ishlab chiqaruvchi yoki uning savdo agenti/dileriga elektron ma'lumot kelib tushadi.	Zarurat bo'lganda
II bosqich	Mahalliy ishlab chiqaruvchi yoki uning savdo agenti/dileri	1. Joyiga chiqqan holda qurilmani o'rnatish mumkinligi o'rganiladi. 2. O'rganish natijasiga ko'ra tavsiyanoma yoki rad etish to'g'risidagi xulosa tayyorlanib, Platformaga joylashtiriladi. 3. Zaruratdan kelib chiqib, tegishli organ yoki tashkilotlarning texnik shartlar bo'yicha xulosalari olinishi mumkin.	5 ish kunida Texnik shartlar bo'yicha xulosalar olinishini hisobiga muddat uzaytirilishi mumkin

III bosqich	Ariza beruvchi, mahalliy ishlab chiqaruvchi yoki uning savdo agenti/dileri	Tavsiyanomaga asosan ariza mazmunidan kelib chiqqan holda, tomonlar o'rtasidagi o'rnatilgan qurilmalar xarajatlarining bir qismi uchun kompensatsiya yoki bo'lib-bo'lib to'lash shartnomasi Platformada avtomatik tarzda tayyorlanadi va tasdiqlash uchun ariza beruvchining telefoniga SMS-xabar yuboriladi.	Onlayn
IV bosqich	Ariza beruvchi	1. Marketpleysdan qurilmalar tanlanadi. 2. Mahalliy ishlab chiqaruvchi yoki uning savdo agenti/dileri o'rtasida elektron oldi-sotdi shartnomasi avtomatik tarzda rasmiylashtirilib, SMS-xabar orqali yuborilgan kod yordamida imzolanadi.	Onlayn
V bosqich	Mahalliy ishlab chiqaruvchi yoki uning savdo agenti/dileri	1. Elektron shartnomaga muvofiq qurilmalar ariza beruvchiga yetkazilib, o'rnatib beriladi. 2. O'rnatilgan qurilmalar bo'yicha Platforma orqali hujjatlar Jamg'armaga taqdim etiladi.	10 ish kunida
VI bosqich	Jamg'arma	1. Platformada joylashtirilgan hujjatlarga asosan o'rnatilgan qurilmalar bo'yicha marketpleysda ko'rsatilgan talablarga mosligi tekshirilib, elektron ma'lumotnoma rasmiylashtiradi va Platformaga joylashtiradi. 2. Mahalliy ishlab chiqaruvchi yoki uning savdo agenti/dileri tomonidan taqdim etilgan hujjatlarda nomutanosiblik, xato va kamchilik aniqlanganda, o'rnatilgan qurilmalar xarajatlarining bir qismi uchun kompensatsiya yoki bo'lib-bo'lib to'lash bo'yicha xarajatlari mahalliy ishlab chiqaruvchi yoki uning savdo agenti/dileri to'liq qoplab berilishi rad etiladi va mahalliy ishlab chiqaruvchi yoki uning savdo agenti/dileri Platforma orqali xabardor qilinadi.	3 ish kunida

VII bosqich	Mahalliy ishlab chiqaruvchi yoki uning savdo agenti/dileri	Hujjatlardagi nomutanosiblik, xato va kamchiliklarni bartaraf etib, Jamg'armaga qaytadan taqdim etishi mumkin.	10 ish kunida
-------------	--	--	---------------

VIII bosqich	Jamg'arma	Mahalliy ishlab chiqaruvchi yoki uning savdo agenti/dileriga o'rnatilgan qurilmalar xarajatlarining bir qismi uchun kompensatsiya yoki bo'lib-bo'lib to'lash bo'yicha o'rnatilgan qurilmalar xarajatlari to'liq qoplash bo'yicha murojaati ijobiy xulosa berilgan elektron ma'lumotga asosan uning hisobraqamiga o'tkazib beriladi. Mahalliy ishlab chiqaruvchi yoki uning savdo agenti/dileri tijorat banki bilan ishlarni birgalikda tashkil qilgan holatda, o'rnatilgan qurilmalar xarajatlarini to'liq qoplash bo'yicha murojaatiga asosan tijorat bankining tegishli hisobraqamiga o'tkazib beriladi.	10 ish kunida 5 ish kunida
--------------	-----------	--	--

[illegible]